# TARBIYANING OLTIN QOIDASI

**Boqiyev Farhod Esanovich**
Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori

**Annotatsiya.** Maqolada yosh avlod tarbiyasida oila, maktab, mahalla va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligi masalasi yoritilgan. Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Alisher Navoiyning tarbiya, axloq va oila mas’uliyatiga oid qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, oiladagi ma’naviy-ruhiy muhit, ota-onaning shaxsiy namunasi hamda zamonaviy axborot makonining bola tarbiyasiga ta’siri ochib berilib, barkamol avlodni tarbiyalashda oila va ta’lim muassasasi hamkorligining ahamiyati asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** tarbiya, bola tarbiyasi, oila, ota-ona, maktab, mahalla, jamoatchilik, axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, ma’naviy-ruhiy muhit.

**Аннотация.** В статье освещается вопрос взаимодействия семьи, школы, махалли и общественности в воспитании подрастающего поколения. Анализируются взгляды Абдуллы Авлони, Абдурауфа Фитрата и Алишера Навои на воспитание, нравственность и ответственность семьи. Раскрывается значение духовно-психологической среды в семье, личного примера родителей и влияния современного информационного пространства на воспитание детей. Обосновывается важность сотрудничества семьи и образовательного учреждения в воспитании гармонично развитого поколения.

**Ключевые слова:** воспитание, воспитание детей, семья, родители, школа, махалля, общественность, нравственное воспитание, национальные ценности, духовно-психологическая среда.

**Abstract.** The article examines the interaction of the family, school, mahalla, and community in the upbringing of the younger generation. It analyzes the views of Abdulla Avloni, Abdurauf Fitrat, and Alisher Navoi on upbringing, morality, and family responsibility. The article highlights the importance of the spiritual and psychological environment within the family, the personal example of parents, and the influence of the modern information environment on child upbringing. The significance of cooperation between the family and educational institutions in fostering a well-rounded generation is also substantiated.

**Keywords:** upbringing, child upbringing, family, parents, school,

mahalla, community, moral education, national values, spiritual and psychological environment.

Abdulla Avloniy bobomiz “Turkiy Guliston yohud axloq” kitobida tarbiyaga shunday izoh beradi: tarbiya - bolaning salomatligi va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidur. Jon salomatligi uchun shifokorlar nechog‘lik fidoi bo‘lsalar, xulq-atvorning go‘zalligi uchun ustozlar shunday jonkuyar bo‘lishlari talab etiladi. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasi tarbiyadur. Axloqimizning binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta’siri bordur.

Bugun aksariyat ota-onalar farzandlarining tarbiyasidan xavotirda. Kimdir ijtimoiy tarmoqlar bola tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini bahona qilsa, boshqa birovlar maktabni, ustozni aybdor qilishdan nariga o‘tmayapti nazarimizda.

Fitrat “Ota-onaning vazifasi o‘z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligidadir”, deb ta’kidlaydi. Tarbiyani quyidagicha tasniflaydi:

1) jismoniy tarbiya - salomatlik;

2) aqliy tarbiya - sog‘lom fikrlilik;

3) axloqiy tarbiya - axloqi sano; ya’ni axloqiy poklikka e’tibor berish kerakligi ta’kidlanadi. Oilaning asosiy vazifasi yosh avlodni tarbiyalashdir, deb izoh beradi.

Bolalar axloqiy tarbiyasida avvalo o‘zi yashayotgan atrof-muhit muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Fitrat bolalarni suvga o‘xshatadi:

> *Maktab bolaga boshlang‘ich sinfdanoq vazifa beradi. Bunday vazifaning berilishi esa bolaning ota-onasi bilan ham dars qilishi, uning aqliy rivojlanishi va qiziqishlarini payqashlari bilan aloqadordir. Ammo XXI asrning zamonaviy ota-onalari ko‘p holatlarda o‘z farzandlari bilan shug‘ullanishga vaqt topa olishmaydi. Bola onasiga savol berganda odatda ona "otangdan ham so‘ra?" yoki "ustozing o‘rgatmayaptimi?” qabilida munosabat bildiradi. Bundan keyin tabiiy ravishda bola- ning ustoziga bo‘lgan hurmati pasayadi va vazifalarini bajarmay qo‘yadi.*

“Suv qaysi rang-li idishda bo‘lsa, o‘sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda bo‘lsalar, o‘sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundaki, bolalar ko‘proq yaxshi va yomon ahvolini o‘z uylaridan, ko‘chadagi o‘rtoqlaridan, maktabdagi o‘quvchilardan qabul qiladilar”. Bu fikrlari

bilan aytmoqchi bo‘lganimiz - bola tarbiyasida faqatgina maktab emas, balki, avvalo, oila va jamoatchilik shug‘ullanishi to‘g‘risida va oilada axloq tarbiyasi doirasida ota-onaning o‘rni beqiyosligini inkor etib bo‘lmaydi.

O‘zbek millatida odatda tarbiya oiladan, ota-ona, buva-buvidan o‘rganilgan. Ming afsuslar bo‘lsinki, yoshlarimiz bugun tarbiyani oiladan ololmayapti. Ota-ona band, ish, yumush, ro‘zg‘or, telefondan ortmayapti. Ammo jamiyat o‘qituvchini yoki butun boshli maktabni bunga aybdor qilib ko‘rsatmoqda.



Ta’lim va tarbiya borasidagi ma’lumotlarni bir-biridan ayri holatda tasavvur qilish mumkun emas. Biri ikkinchisisiz hech narsaga yaramaydi, balki noqis bo‘ladi. XX-XXI asrlarda avvalgi asrlardagiga nisbatan savodsizlikka qarshi kes- kinroq choralar ko‘rildi, ta’lim tizimi kuchaytirilib takomillashtirildi. Umumiy ta’lim kirib bormagan yurt deyarli qolmadi. Hattoki ba’zi mamlakatlar aholisi ilm-fan bo‘yicha inson ko‘zi ko‘rmagan, qulog‘i eshitmagan yutuq va taraqqiyotlarni qo‘lga kiritdi. Lekin asosiy ko‘zlangan maqsadga erishilayotgani yo‘q. Shuning uchun ham ilm-fan rivojlangan mamlakatlarda tarbiyasizlik, axloqsizlik, ma’naviyatsizlik madaniyatsizlik va hattoki inson zoti-

ga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan illatlar kundan-kunga keng ko‘lamda yoyilib boryapti.

Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati muhim sanaladi. Farzandning tarbiyasini faqat onaga tashlab qo‘yish to‘g‘ri emas. Bu borada otaning ham o‘rni beqiyosdir. Hayotda o‘g‘il ko‘proq otaga qarab ergashadi. Otaning samimiyligi, hurmati va yaxshiligi farzandga kuch-quvvat bo‘ladi. Oilaning asosiy tirgagi bo‘lgan ota hayotning mashaqqatlarini kechib, o‘zining bukulmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshliligi bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi. Ota oilada o‘z farzandlariga yurish-turishda, nutq odobida, o‘zaro muomala madaniyatida to‘g‘rilik, halollik, samimiylik yuzasidan namuna bo‘la oladi. Oilada samimiylik, bir-biriga bo‘lgan mehr va hurmat yuqori bo‘lsa, farzandning o‘sib ulg‘ayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy tarbiyaning yana bir ko‘rinishi ota-onani hurmat qilish ekanligini farzandlarga uqtiradi:“Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi. Ikki dunyong obod bo‘lishini istasang, shu ikki odam roziligini ol. Tunu-kuningga nur berib turganning birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh”.

Oilada ma’naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o‘zaro hurmat va ahillikni ta’minlash "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo‘ladi. Har bir totuv oila, obod mahallani, obod mahalla - millatning asosiy, bosh bo‘g‘ini hisoblanadi. Mahalla - avvalo, sog‘lom milliy ijtimoiy muhit maskani hisoblanib, bu yerda kuchli ta’sirga ega bo‘lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o‘zaro munosabatlarini adolat va ma’naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma’noda mahallani odamiylik, insonparvarlik darsxonasi, deb ham atash mumkin.

Zero, mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlari va an’analariga tayangan holda ulkan tarbiyaviy funksiyani bajaradi. Keksalarning yoshlarga pand-nasihatlari, yoshlarning xatti-harakatlarini kuzatish, yo‘naltirish va boshqa usullar bilan, bir tomondan yot g‘oyalarga qarshi kurashiladi, ikkinchi tomondan, ularning ongiga milliy mafkura singdirib boriladi. Mahallada milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, elyurt sha’ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o‘rni beqiyos sanaladi. Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona degan naql xalq orasida bejizga ommalashmagan. Har bir millat o‘z istiqbolini kamolga yetayotgan yoshlari timsolida ko‘radi. Shuning uchun ham jamiyatning tayanchi oila sanaladi. Ulug‘ ma’rifatparvar Abdulla Avloniy aytgan-

laridek, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida: 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida. – Toshkent, 2023.

3. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun. – Toshkent, 2020.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Toshkent.

5. Milliy tarbiya va ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bo‘yicha ilmiy-uslubiy manbalar. – Toshkent.